**O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**

**“San’at olami – talabalar nigohida” mavzusidagi**
**III respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani**
**AXBOROT XATI**

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida **2026-yil 15-may kuni** “**San’at olami – talabalar nigohida”** mavzusida III respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani o‘tkaziladi.

**Konferensiya quyidagi sho‘balarda ish yuritadi:**

1. “Xoreografiya san’ati – an’ana va zamonaviylik uyg‘unligi”
2. “San’atshunoslik va ijtimoiy fanlar”

**Konferensiyada amal qiluvchi tillar:** o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz.

Konferensiyada madaniyat, san’at va boshqa sohalarda tahsil olayotgan bakalavr va magistrantlar ishtirok etishlari mumkin.

**Konferensiyada ishtirok etish uchun maqolalar topshirish talablari:**

- ilmiy maqolalar anjuman yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, ilmiy taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- maqola matni Microsoft Word matn muharriri yordamida Times New Roman shriftida, 1,5 intervalda, 14 o‘lchamda terilgan bo‘lib, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm joy qoldirib rasmiylashtiriladi. Maqolaning nomi bosh harflar bilan yoziladi va 1,5 intervaldan so‘ng, muallifning F.I.O. va OTM nomi yoziladi;
- foydalanilgan adabiyotlar kamida 4-5 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi tavsiya etiladi;
- talabga javob bermaydigan maqolalar chop etilmaydi va qo‘lyozmasi muallifga qaytarilmaydi;
- muallif taqdim etilgan maqolaning ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asoslanganligi, maqolada keltiriladigan raqamlar, ma’lumot va dalillarning aniqligi, to‘g‘riligi hamda plagiatga yo‘l qo‘yilmaganligiga mas’uldir;
- maqola hajmi 5-7 bet, elektron variantda **2026-yil 1-aprelga qadar** tahrirdan o‘tkazib, tashkiliy qo‘mitaning **onaw82@mail.ru** elektron manziliga yoki +998946446442 telegram raqamiga yuborilishi lozim; fayl nomi muallif familiyasi bilan yozilishi kerak;
- ko‘rsatilgan muddatdan kechikib taqdim etilgan maqolalar ko‘rib chiqilmaydi va to‘plamga kiritilmaydi.

**Tashkiliy qo‘mita**